

**A. Qodiriy nomidagi Jizzax DPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarda
masofaviy ta'lif kafedrasi Uslubiy kengashining navbatdan tashqari
yig'ilishi**
BAYONNOMASI

Vaqti: 01.04.2022

Qatnashdilar:

Kafedra mudiri: PhD I.Umarov
Kotib: S.Bultakov va kafedra barcha
a'zolari

KUN TARTIBIDA

Ochiq va o'zaro darslar muhokamasi

EShITILDI:

Kun tartibidagi ochiq va o'zaro darslar muhokamasi **yuzasidan** kafedra uslubiy ishlari bo'yicha mas'ul o'qituvchi S.Bultakov so'zga chiqib,ochiq dars yuzasidan quyidagi fikr mulohazalarini bayon qildi:

Kafedra prof-o'qituvchilari ochiq darslarini ZOOM dasturi orqali o'tayotganligini inobatga olib, notiq vaqtini ko'p olmasligini, har bir o'qituvchini tinglab o'tirish ancha vaqtni olishini ta'kidlab, darsga kirgan o'qituvchilardan qisqa va lo'nda taklif va mulohazalarini bayon qilishlarini,dars jarayonida qatnashgan o'qituvchilardan ochiq darslarni muhokama qilishni,yig'ilish qatnashchilaridan so'radi va bu taklif yig'ilish qatnashchilari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

S.Bultakov ushbu oyda o'tkazilgan ochiq darslar muhokamasi bo'yicha so'z navbatini darslarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan o'qituvchilarga berdi.

1. Kafedra katta o'qituvchisi S.Mamatqulov so'zga chiqib dars yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bayon qildi:

Ma'ruzachi 01.04.2022 kuni soat 15:40 da J.Isoqovning Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim Jismoniy madaniyat yo'nalishi sirtqi 3-kurs 2001-19-2002-19-2003-19-2004-19-2005-19-2006-19-2007-19 guruhlarida "Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish Sportcha yurish va yugurish texnikasi" mavzusidagi ochiq ma'ruza darsiga kirganligini, o'qituvchi darsni birinchi o'rinda vaqt reglamentiga amal qilganligini, tarbiyaviy va ta'limiylar maqsad davlat ta'lif standartlari asosida tashkil qilinganligi o'qituvchining birinchi o'rindagi yutug'i hisoblanishini;

O'qituvchining mavzuni nazariy bilimlari, internet materiallari va taqdimot{slayd} orqali, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ochib berdi; Fudbol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanish tarixini batafsil tushuntirildi;

O‘quv mashg‘uloti nazariy va amaliy faoliyat bilan uzviylashtirilganligini, misollar orqali yoritib bergen , berilayotgan materiallarni amaliyat va boshqa fanlar bilan bog‘lab tashkil qilganligi o‘qiyuvchining yutug‘i ekanligini ta’kidlab o’tdi va dars yuzasidan quyidagi takliflarni aytib o’tdi:

- mashg‘ulot yuzasidan metodik va psixologik ta’sirni kuchaytirish kerak;
- mavzuni mustaqil o‘zlashtirish uchun ko‘rsatmalar berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’ruzachi so‘zining yakunida ushbu ochiq darsni 8 ball bilan baholaganligini aytib, so‘zini yakunladi.

2. Ochiq ma’ruza bo‘yicha kafedra o‘qituvchisi Z.Jalolova so‘zga chiqdi va ochiq dars yuzasidan quyidagi fikrlarni bayon qildi:

Dars o‘z vaqtida boshlandi. Darsda axborot texnologiyalaridan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanildi. Darsning ko‘rgazmalilik darajasi yuqori, o‘qituvchining nutq madaniyati chiroyli. Nazariy bilimlari yetarli darajada ekanligini namoyish eta oldi. Mavzu yuzasidan reja asosida ma’lumotlar to‘plangan. Dars yuzasidan o‘qituvchiga quyidagi metodik tavsiyalar berildi:

- Talabalarni ham ko‘proq jalb qilish kerakligi;
- Mavzuni o‘rganish doirasida muammoli vaziyat hosil qilinsa, yanada tinglovchilarning darsga bo‘lgan e’tibori yuqori bo‘ladi;
- Ma’ruza jarayonida talabalarning o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan bilim darajasini dars boshida tezkor savollar orqali aniqlab, darsning yutuq va kamchikililar ko‘rsatilgan holda, ochiq ma’ruzani 8 ball bilan baholaganlini ta’kidlab so‘zini yakunladi.

3. Ochiq ma’ruza bo‘yicha kafedra o‘qituvchisi D.Eryigitov so‘zga chiqdi va dars yzasidan quyidagi fikr va mulohazalarini bayon qildi:

O‘qituvchi darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan. O‘z fanini yaxshi biladi. Ko‘rgazmali qurol, yangi pedagogik texnologiyalar, AKTdan foydalanilgan tarzda tashkil qildi. O‘qituvchining tashqi qiyofasi, nutq madaniyati ravon, DTS talabalari asosida integratsiya jarayonidan yetarli darajada foydalanilganligi tinglovchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirdi. Nazariy va amaliy ta’limning o‘zaro aloqadorligini, eng avvalo, o‘quv mashg‘ulotlari tuzilmasida ma’ruza, seminar, amaliy, mashg‘ulotning boshqa turlarini uzviy ravishda amalga oshira oldi, ma’ruza materialini talaba tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi uchun mashg‘ulotlar amaliy ish bilan uyg‘unlikda tashkil qilinganligi fan o‘qituvchisining yutug‘i hisoblansa ,quyidagi dars yuzasidan takliflar aytib o’tildi;

- Mavzuni tushuntirganda sekinroq gapirish kerak.
- Mavzularning muhim jihatlariga e’tibor qaratish lozim.

Kuzatuvchi ochiq ma’ruzani 8 ball bilan baholaganlini ta’kidlab so‘zini yakunladi.

4. Ochiq ma'ruza bo'yicha kafedra o'qituvchisi . S.Abduqodirov so'zga chiqdi. Dars yuzasidan quyidagi fikrlarni bayob qildi:

- Auditoriya dars o'tishga tayyor tashkiliy qism yaxshi tashkillashtirilgan. O'qituvchi nutq boyligiga ega. O'qitishda fanning zamonaviy tendensiyalarini egallagan. Fan bo'yicha va mavzuga oid yetarli bilimlarni egallagan.

Mavzu yuzasidan ma'lumotlarni talabalarga to'liq yetkazib bergenligini kuzatish mumkin.O'qituvchi mashg'ulot davomida talabalarning diqqat e'tiborini o'ziga jalg qila oldi. Nutq madaniyatiga yaxshi,o'qituvchining umumiyligi holati barcha etiket normalariga to'g'ri keladi.Dars yuzasidan quyidagi takliflarni aytib o'tdi;

-Mashg'ulot davomida mavzu doirasida foydalanilgan qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatini aytib o'tsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'qituvchi ochiq ma'ruzani 8 ball bilan baholaganlini ta'kidlab so'zini yakunladi.

Ushbu darsga kirgan o'qituvchilar S.Mamatqulov (8ball), D.Eryigitov (8ball), S.Abduqodirov (8ball), Z.Jalolova (8ball) ham yuqoridagi ma'ruzachining fikrlariga qo'shilishini va qo'shimcha taklif sifatida mavzuni yoritib berishda rejalgarda vaqt taqsimotiga e'tibor berishni ta'kidladi va ushbu ochiq darsni o'rtacha bahosi 8 ball bilan baholaganligini aytди.

Kafedra qaror qiladi:

Kafedra o'qituvchisi J.Z.Isoqovning "Yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish Sportcha yurish va yugurish texnikasi" mavzusidagi ochiq darsi va o'zaro darslariga kirgan o'qituvchilarning dars tahlillari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1. O'tkazilgan ochiq dars yutuq va kamchiliklari ko'rsatilgan holda ijobiy deb baholansin.

Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim boshlig'i:

A.Avazov

Kafedra mudiri:

I.Umarov

Kotib:

S.Bultakov





14:38

Participants (13)

Close

Search

ZS	Zarnigor Sulaymonavna (me)			>
M	Мехринигор (Host)			>
AD	Akbar duvlanov			>
EF	e-max.uz Farxodjon			>
	Jafer Yaxyaxonov			>
GO	G'olbnazarov O'tkir			>
Э	Эркин Пулатов			>
D4	Davron 406			>
I	Ixtiyor Xasanov			>
MM	Murod Mahmasolayev			>
X	Xurshid YusupoF			>

Invite

